

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	117
<b>Sh.Q.Yuldasheva</b>	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
<b>Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova</b>	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalarning o'zgarishi .....	127
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
<i>Cynara scolymus</i> L. O'simligidan ajratib olingan endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faolliklari .....	133
<b>S.Israyiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva</b>	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili .....	138
<b>M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov</b>	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziyasi bo'yicha 1993-2022-yillar oralig'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili .....	143
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant <i>Cynara scolymus</i> L.....	149
<b>S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev</b>	
Farg'ona vodiysi Cladocera ( <i>Crustacea: Branchiopoda</i> ) lari ro'yxati.....	157
<b>Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov</b>	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
<b>M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova</b>	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
<b>M.A.Davidov</b>	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> ( <i>Regel</i> ) korovin antekologik xususiyatlari .....	181
<b>X.N.Raximov, G.T.Djalilova</b>	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalari ta'siri .....	186
<hr/>	
<b>M.R.Qoriyev</b>	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar .....	191
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	196
<b>R.A.Ikromov</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli.....	200
<b>S.Nishonova</b>	
Maqollar paremiologik birlik sifatida .....	205
<b>Sh.A.Tadjibaeva</b>	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	208
<b>S.S.Jabborova</b>	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari.....	213
<b>E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov</b>	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
<b>K.M.Nilufar</b>	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
<b>T.Quyliyev</b>	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli .....	227
<b>B.M.Qandov</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli .....	233
<b>Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova</b>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvizmning ta'siri .....	238
<b>F.F.Muydinov</b>	
Tibbiy ta'limda mediata'lim asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
<b>Z.S.Paziljanova</b>	



UO‘K: 159.953.3:001.891

**IJODIY FAOLIYAT UCHUN, O‘QUV MASHG‘ULOTLARINING O‘ZIGA XOS USLUBIY CHIZMASIGA EGALIGI, IJODKORLARNING EKSPERIMENTAL ISHIGA KATALIZATOR BO‘LIB XIZMAT QILISHI OMILLARI****ДЛЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ФАКТОРЫ, СЛУЖАЩИЕ КАТАЛИЗАТОРОМ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ТВОРЧЕСТВ, ИМЕЮЩИХ ОПРЕДЕЛЕННУЮ МЕТОДОЛОГИЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ****FOR CREATIVE ACTIVITY, THE FACTORS THAT SERVE AS A CATALYST FOR THE EXPERIMENTAL WORK OF CREATIVES, HAVING A SPECIFIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL ACTIVITIES****Gulzoda Ernazarovna Umarova** 

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti, Libos dizayni kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Rashidov Asomiddin Zayniddinovich**

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti, Libos dizayni kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya**

Maqolada talabalarning ijodiy faoliyati uchun, o‘quv mashg‘ulotlarining har biri o‘ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo‘lib xizmat qilishi omillari mohiyati muallif tomonidan ta’rifi berilgan.

**Аннотация**

В статье автор определяет суть факторов того, что каждое из учебных занятий имеет свой методический образец творческой деятельности студентов и служит катализатором экспериментальной работы художников.

**Abstract**

In the article, the author determines the essence of the factors that each of the training sessions has its own methodological example of the creative activity of students and serves as a catalyst for the experimental work of artists.

**Kalit so‘zlar:** eksperimental, innovatsion ta’lim, metod, rivojlanish.**Ключевые слова:** экспериментальной, инновационное образование, метод, развитие.**Key words:** experimental, innovative education, method, development.**KIRISH**

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur‘atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga etkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

O‘qituvchining samarali faoliyat ko‘rsatishga undovchi amaliyot darsining metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o‘laroq, ta’lim texnologiyasini auditoriyadagi talabalar faoliyatiga mos ravishda yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’minlashi, talabalarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga undovchi mativatsiyani vujudga kelishini ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Ta’lim texnologiyasining asosiy maqsadi – ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishishni ta’minlashdan iborat.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

L.I. Antsferovanning asarlarida muallif "Natija" tushunchasi ostida, o'rganish mahsuli - olingan yangi bilimning ko'nikma va qobiliyatlar yoki ularni kompetensiyaga aylanishi tushuntirilgan. Amaliy, ijodiy darslarda mutaxassislar tayyorlash jarayonida pedagog taqdim etadigan ma'lumotlarini tahlil qilish va talabaga yetkazish jarayoni natijasi, pedagogning kompetensiyasiga bog'liqligi, ijobiy natija berishi aniqlangan. Umuman olganda ijodiy ta'lim jarayoni o'zlashtirishga emas, balki o'rganishga qaratilgan individual fan. Bizningcha, bu vaziyatdan chiqish yo'li amalda yangicha o'qitish modellaridan foydalanish lozim. Ushbu modelga ko'ra, ta'limning har qanday bosqichida o'qitish tizim bo'lmasligi kerak va bilim, ko'nikma va malakalar tizimliliigi o'z-o'zidan muhim bo'lib, ta'lim tizimi faoliyati va ular asosida shakllanadigan asosiy kompetensiyalardan iborat bo'lishi lozim.

E.N.Selivyorstovanning so'zlariga ko'ra, o'quv jarayonida, ular bitta umumiy maqsad bilan bog'langan - shaxsni rivojlantirish va takomillashtirish va Oliy ta'lim uchun "universal ta'lim faoliyati" tushunchasini ishlab chiqish, dolzarb meta-mavzu bo'yicha treninglar shakllantirish, amaliy, ijodiy darslarni maxsus o'rganish lozimligini ta'kidlagan.

### NATIJAR VA MUHOKAMA

Bunday tizimdan foydalanilganda talabalarda barqaror motivatsion kayfiyatlari asta-sekin shakllanadi. Qayerda amaliyot jarayoni to'g'ri ketma-ketlik shakllangan bo'lsa, ko'rsatgich impulslarining tabiiy kuchayishiga va rivojlanishiga asoslangan, rivojlanishning asl mazmunida boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qilgan metasubyektni bilish jarayoni deb bimalol misol qilib olishimiz mumkin. Bu bosqichning asosiy vazifalaridan biri talabaga milliy g'ururni qadriyatlar asosida rivojlantirish va akme shaxsni shakllantirishdir. Dizayn faoliyatining turli yunalishlariga nisbatan talabning shaxsiyati va shu bilan birga, talabning qaysi yo'nalishga moyilligi, dizayner faoliyatining o'ziga xos turi (badiiy ijod, loyihalash, tadqiqot faoliyati va boshqalar), qabul qilish qobiliyati o'zining moyilligi va qobiliyatiga asoslangan tanlov juda ham muhimdir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ma'lumotlar biz tomonimizdan ya'ni pedagog tomonidan vosita sifatida ta'lim oluvchiga vosita sifatida beriladigan bo'lsa, dizayner o'z faoliyati davomida o'zini o'zi shaxs sifatida shakllantirishi va rivojlanishini belgilashini ko'rishimiz mumkin.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki, tajribaning ushbu bosqichidagi asosiy nuqta ta'lim jarayonining unumli va foydali bo'lishida talabning faol o'zlashtirishiga qaratilgan metod va vositalarni tegishli qadriyatlar asosida rivojlantirish dizaynerning kasbiy faoliyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu borada shuni ham takidlash lozimki, o'quv jarayonini inson psixologiyasining ham roli haqida to'xtalib o'tishimiz lozim va shart.

Sababi inson temperamentidan kelib chiqqan holda, tegishli qoidalar asosida talabaga bilim olish, shakllanish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish va o'rganish motivatsiyasini bera olish pedagogning zimmasidadir. Sababi pedagog shaxsni shakllantirish jarayonida o'ziga xos ichki harakatlantiruvchilarini shakllantirish (motiv), shaxsning qadriyat yo'nalishlariga hissa qo'shishga undaydigan emotsiyalarni yetkazishi lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Юнусходжаева, С.А. (2019). ЁШ РАССОМНИ ЎҚИТИШДА САМАРАЛИ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 1(4).
2. Юнусходжаева, С. А. (2020). КАСБ ТАЪЛИМИ ЙЎНАЛИШИДАГИ ТАЛАБАЛАРНИ ЎҚИТИШДА КАСБИЙ БИЛИМНИ ЧУҚУР ЎЗЛАШТИРГАН МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ ВА МИЛЛИЙ ЛИБОСЛАРИМИЗГА ОИД БИЛИМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АФЗАЛЛИК ЖИҲАТЛАРИ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 2(4).
3. Abutalibovna, Y. S., & Muratovna, K. U. (2022). Formation of the national clothes of the inhabitants of Surkhandarya under the influence of local living conditions. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 5, 31-35.
4. Zaripova, M. S. (2022). TRAINING OF A FUTURE DESIGNER IN THE PROCESS OF CREATING A MODEL FOR A DESIGNER-ENGINEER, TECHNOLOGIST, ECONOMY, MASTER. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 115-121.
5. Ernazarovna, U. G. (2022). THE FORMATION OF THE DESIGN TERM AND HISTORY OF DEVELOPMENT. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 96-102.
6. UMAROVA, Z. KOSTYUM DIZAYNI TA'LIMINI MODERNIZATSIYALASHNING AKTUAL TAMOYILLARI. *O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2020, [1/2] ISSN 2181-7324.
7. Ernazarovna, U. G. (2022). The Role of "Design-thinking" in the formation of artistic and design activities of future specialists. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 103-105.

## ILMIY AXBOROT

8. Ходжаева, У. М. (2019). ДИЗАЙН КАК ИСКУССТВО. *Экономика и социум*,
9. Abdullayeva, F. S., Nishanova, S. D., Rashidov, A. Z., Zaripova, M. A., & Dehkanova, R. E. (2020). Factors influencing the formation of clothes as a component of ethnic culture in the territory between two rivers in central Asia. *Elementary Education Online*, 19(4), 832-836.
10. Raxmatilloevna, F.M. (2021). Creativity in Fashion Design. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 1(11), 73-76.
11. Atakhanova, F.Z. (2020). USING TRADITIONAL METHODS OF MAKING UZBEK COSTUME IN MODERN DESIGN DURING QUARANTINE DUE TO COVID-19. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 1771-1776.
12. Атаханова, Ф.З. (2019). Этно-стиль: на подиумах и реальности (на примере деятельности дизайнеров Узбекистана). *European Journal of Arts*, (3).
13. Атаханова, Ф.З. (2021). ЎЗБЕК АНЪАНАВИЙ ЛИБОСИ ВА ЗАМОНАВИЙ МОДАНИНГ ЎЗАРО ИНТЕГРАЦИЯ ЖАРАЁНИНИ ТАҲЛИЛ ЭТИШДАГИ МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАР. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(6).
14. Qizi, Y.S.M., & Muratovna, X. U. (2021). LIBOS DIZAYNI TA'LIMIDA EKOLOGIK-INNOVATSION MATOLARNING AHAMIYATI VA ZAMONAVIY MODA-KOSTYUM DIZAYN SANOATIGA TADBIQ ETISHNING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 240-251.